Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi

# Jismoniy tarbiya va sport sohasi

## TARMOQ MALAKA RAMKASI

TOSHKENT - 2026

“Jismoniy tarbiya va sport sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

© Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti,
Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy
malakalarni rivojlantirish boʻyicha
tarmoq kengashi, 2026.

# TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-025

## 1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasi Oʻzbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashgʻulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan boʻlib, jismoniy tarbiya va sporti tarmogʻi boʻyicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qoʻllaniladigan bilim, koʻnikma (mahorat), masʼuliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasi jismoniy tarbiya va sport tarmogʻida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini taʼminlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport yoʻnalishi boʻyicha Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi jismoniy tarbiya va sport tarmogʻida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yoʻnalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qoʻyilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashgʻulotlar (malakalar) turlarini koʻrsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari boʻyicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun jismoniy tarbiya va sport tarmogʻidagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, koʻnikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qoʻyiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur boʻladigan, oʻrganilgan va oʻzlashtirilgan maʼlumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

informal taʼlim – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy taʼlimdan koʻra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi oʻquv faoliyatini oʻz ichiga olgan taʼlim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun moʻljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat koʻrsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislar – davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarining jismoniy tarbiya instruktorlari, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim, professional taʼlim muassasalarining jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari, oliy taʼlim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport yoʻnalishlari boʻyicha rahbar va pedagog kadrlari, olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari, sport turlari boʻyicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport maktablarining rahbar kadrlari, instruktor-metodistlari, maxsus fan oʻqituvchilari, trenerlari, sport psixologlari, maxsus xizmat xodimlari hamda sport tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislar;

jismoniy reabilitatsiya – odam organizmining buzilgan yoki vaqtincha yoʻqotilgan funksiyalarini hamda nogironligi boʻlgan shaxslarning va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatga boʻlgan qobiliyatlarini jismoniy tarbiya va sport vositalari hamda usullaridan foydalangan holda tiklash (tuzatish va kompensatsiya qilish);

jismoniy tarbiya – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yigʻindisidan iborat boʻlgan qismi;

kasb – koʻnikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini oʻz ichiga olgan tizimlashtirilgan roʻyxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

ommaviy sport – sportning tashkil etilgan va (yoki) mustaqil mashgʻulotlar, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini oʻtkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalash, sogʻlomlashtirish, kamol toptirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlariga jalb etishga doir qismi;

professional sport – sportning sport musobaqalarini tashkil etish va oʻtkazishga doir qismi boʻlib, sportchilar ularda oʻzining asosiy faoliyati sifatida ishtirok etganligi va ularga tayyorgarlik koʻrganligi uchun mukofot va (yoki) ish haqi oladi;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning oʻrtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

sport – odamlarning muayyan qoidalar boʻyicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat boʻlgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik koʻrish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar oʻrtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

sportchi – tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shugʻullanadigan, doimo oʻzining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs;

sport boʻyicha agent – sportchi nomidan va uning manfaatlari uchun shartnoma asosida faoliyat koʻrsatadigan, tuzilgan shartnomalar shartlariga va sportchining huquqlariga rioya etilishini kuzatib boradigan shaxs;

sport musobaqasi – sportchilar oʻrtasida yoki sportchilar jamoalari oʻrtasida har xil sport turlari boʻyicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) boʻyicha oʻtkaziladigan bellashuv;

sport inshooti – sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari boʻyicha oʻquv-mashq mashgʻulotlari va oʻquv-mashq yigʻinlarini oʻtkazish uchun moʻljallangan, oʻziga qoʻyiladigan norma va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq tipdagi ixtisoslashtirilgan inshoot;

sport hakami – sport turi qoidalariga hamda sport musobaqasi toʻgʻrisidagi nizomga (reglamentga) rioya etilishini taʼminlash uchun jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi tomonidan vakolat berilgan, maxsus tayyorgarlikdan oʻtgan va tegishli malaka toifasini olgan jismoniy shaxs;

trener – trenerlik faoliyati bilan shugʻullanish uchun malaka sertifikatiga ega boʻlgan hamda oʻquv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini oʻtkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;

Oʻzbekiston milliy sport turlari va xalq oʻyinlari – milliy ijtimoiy-madaniy yoʻnalishga ega boʻlgan hamda Oʻzbekiston Respublikasi hududida rivojlanayotgan sport va oʻyin turlari;

Oʻzbekiston Respublikasining sport terma jamoalari – xalqaro sport musobaqalariga tayyorgarlik koʻrish hamda ularda Oʻzbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish uchun turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar,

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqa mutaxassislar, tibbiyot mutaxassislari hamda boshqa mutaxassislar jamoalari.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF–18-sonli Farmoniga muvofiq Yoshlar siyosati va sport vazirligi negizida Sport vazirligi tashkil etilishi hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar siyosati va sport boshqarmalari negizida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari tashkil etilishi belgilangan.

Farmonning 1-ilovasiga muvofiq quyidagilar Sport vazirligi faoliyatining ustuvor yoʻnalishlari hisoblanadi:

a) sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yoʻnalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohada qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

b) sohaga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish hamda sport sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash;

d) aholi oʻrtasida sportni ommalashtirish va sogʻlom turmush tarziga keng jalb etish, sport taʼlimi tizimini takomillashtirish, sport turlari boʻyicha yuqori natijador sportchilar zaxirasini yaratish;

e) Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, nufuzli xalqaro musobaqalarda sportchilarning muvaffaqiyatli ishtirokini taʼminlash;

f) sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sohani bosqichma-bosqich raqamlashtirish, sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

g) sport sohasida xalqaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish;

h) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida”gi OʻRQ-513-XII-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrdagi “Sportda dopingga qarshi kurash toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2005-yil 19-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi OʻRQ-275-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 4-noyabrdagi “Sport sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-988-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 1-apreldagi “Qishloq joylardagi bolalar sporti obyektlarida band boʻlgan ayol sport ustozlari mehnatini ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-1315-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3197-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabr “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarkibida “Taekvondo va sport faoliyati” fakultetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1315-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5054-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5114-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-23-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-136-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-266-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 369-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-apreldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat koʻrsatadigan maktabdan tashqari nodavlat sport-ta’lim muassasasi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida”gi 466-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-martdagi “Sport sohasida davlat xizmatlari koʻrsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 583-son Qarori.

Foydalanilgan qisqartmalar.

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi.

## 2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Jismoniy tarbiya va sport sohasi — aholining jismoniy faolligini oshirish, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, sport zaxirasini tayyorlash va xalqaro musobaqalarda raqobatbardosh sportchilarni yetishtirishga qaratilgan muhim ijtimoiy sohadir. Mazkur soha sport taʼlimi, trenerlik faoliyati, sogʻlomlashtirish va reabilitatsiya xizmatlari, sport psixologiyasi va tibbiyoti, hamda aholining turli qatlamlari uchun jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish kabi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tarmoq malakalar ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

S - seksiyasi Sanʼat, sport va dam olish.

1-jadval. Oʻzbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

| T/r | Seksiya | Boʻlim | Guruh | Sinf | Kichik sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | S-seksiyasi Sanʼat, sport va dam olish | 93. Sport, dam olishni va koʻngil ochishni tashkil etish sohasidagi faoliyat | 93.1 Sport sohasidagi faoliyat | 93.11 Sport obyektlari faoliyati | 93.11.0 Sport obyektlari faoliyati |
| | | | | 93.12 Sport klublari faoliyati | 93.12.0 Sport klublari faoliyati |
| | | | | 93.13 Fitness-klublar faoliyati | 93.13.0 Fitness-klublar faoliyati |
| | | | | 93.19 Sport sohasidagi boshqa faoliyat | 93.19.0 Sport sohasidagi boshqa faoliyat |

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashgʻulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

| T/r | Mashgʻulot guruhi kodi | Mashgʻulot guruhi nomi |
|---|---|---|
| 1. | 12190 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va maʼmuriy ishlar boʻyicha boshqaruvchilar, b.g.k. |
| 2. | 13111 | Oʻsimlikshunoslik va chorvachilik sohasidagi boʻlinmalar rahbarlari |
| 3. | 13220 | Konchilik, qazib olish sanoatida ishlab chiqarish va foydalanish boʻlimlari boshliqlari |
| 4. | 13450 | Taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasidagi boʻlinmalar rahbarlari |
| 5. | 14312 | Jismoniy tayyorgarlik va sport xizmatlari boʻyicha tarkibiy boʻlinmalar rahbarlari (boshqaruvchilar) |
| 6. | 22121 | Shifokorlar |
| 7. | 22641 | Shifokor-fizioterapevt va jismoniy reabilitatsiya boʻyicha professional mutaxassislar |
| 8. | 22690 | Boshqa shifokorlar va professional-mutaxassislar, b.g.k |

| | | |
|---|---|---|
| 9. | 23599 | Ta’limning boshqa boshlang‘ich guruhiga kiritilmagan professional mutaxassislar |
| 10. | 26349 | Boshqa mashg‘ulotlar guruhlariga kiritilmagan psixologlar, b.g.k. |
| 11. | 26351 | Ijtimoiy xizmat va ijtimoiy reabilitatsiya bo‘yicha professional-mutaxassislar |
| 12. | 31534 | Aviatsiya shturmanlari |
| 13. | 33399 | Boshqa mashg‘ulotlar guruhlariga kiritilmagan tijorat xizmatlari inspektorlari, agentlari, b.g.k. |
| 14. | 34210 | Sportchilar va atletlar |
| 15. | 34220 | Sport murabbiylari, instruktorlari va sport xodimlari |
| 16. | 34222 | Sport xodimlari |
| 17. | 34230 | Fitnes klublari yo‘riqchilari, sport dam olish maskanlari va sport dasturlarining tashkilotchilari |
| 18. | 51530 | Bino nozirlari |
| 19. | 51640 | Uy hayvonlari va boshqa hayvonlarni parvarish qilish bo‘yicha yakka tartibda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar |
| 20. | 53210 | Tibbiy va ijtimoiy yordam muassasalarida bemorlarga parvarishlash bo‘yicha yakka tartibda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar |
| 21. | 73119 | Boshqa mashg‘ulotlar guruhlariga kiritilmagan pretsizion asbob-uskunalar tayyorlash va ularni ta’mirlash bilan shug‘ullanuvchi ishchilar, b.g.k. |
| 22. | 72339 | Boshqa mashg‘ulotlar guruhlariga kiritilmagan qishloq xo‘jaligi va sanoat jihozlarini ta’mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar, b.g.k. |
| 23. | 83429 | Boshqa mashg‘ulot guruhlariga kiritilmagan yer qazuvchi va shunga o‘xshash mashinalarning mashinistlari, b.g.k. |

## 3. Tarmoq tahlili

Bugungi kunda sport tarmog‘ida 30 mingdan ziyod xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 52 foizini oliy ma’lumotli xodimlar, 48 foizini o‘rta va o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda sport tarmog‘i uchun 7 ta mahalliy oliy ta’lim muassasalari, shuningdek 15 ta professional ta’lim muassasalari kadrlar tayyorlab bermoqda.

Sport tarmog‘ida yiliga o‘rtacha 12 mingdan (12918 nafar) ziyod xodimning malakasi oshiriladi. Shundan 4 foizi (529 nafar Direktor, direktor o‘rinbosarlari, metodistlar, psixologlar) rahbar xodimlar, 95 foizi (12282 nafar trener, va o‘qituvchilar) muhandis-texnik xodimlar va 1 foizi (107 nafar texnik xodimlar) ishchi-xizmatchi xodimlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Sport tarmog‘ida yiliga o‘rtacha 2 mingga yaqin O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti bitiruvchilari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha ishga yo‘naltiriladi.

Hozirgi kunda sport tarmog‘ida 340 dan ortiq ilmiy darajaga ega bo‘lgan xodimlar faoliyat yuritmoqda, ularning 30 foizini fan doktori (DcS) va 70 foizini fan nomzodi va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega xodimlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar haqida ma`lumot:




2025-yil davomida 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) boʻlib oʻtadigan XXXIV Yozgi olimpiya va XVIII Paralimpiya oʻyinlariga tayyorgarlik boʼyicha quyidagi amaliy choralar koʻrilmoqda:

Shuningdek, 2025-yilning 8-iyul kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2028-yil Los-Anjeles shahrida boʻlib oʻtadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya oʻyinlariga Oʻzbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash toʻgʻrisida” PQ-221-son qarori qabul qilindi.

Sohadagi kadrlar malakasi gaholashda shaffoflikni taʼminlash maqsadida “Jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarining trenerlari va yoʻriqchi-uslubchilari hamda sport hakamlariga malaka toifalarini berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-avgustdagi VM-500-son qarori qabul qilindi.




Hozirda sport sohasida dolzarb kasblar ro‘yxatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Sportchi (turlari bo‘yicha) (34210002) - futbol, boks, kurash, dzyudo, taekvondo kabi sport turlarida professional sportchilar katta e’tiborga ega. O‘zbekiston xalqaro arenalarda ko‘p yutuqlarga erishayotgani sababli, sportchilarni tayyorlash va ularning faoliyati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda;

Murabbiy (34220008) - har bir sport turi bo‘yicha malakali murabbiylarga ehtiyoj katta. Ayniqsa yosh sportchilarni tarbiyalash, ularni musobaqalarga tayyorlashda tajribali murabbiylar asosiy rol o‘ynaydi;

Sport tibbiyoti shifokori (22121137) - sportchilar sog‘lig‘i, tiklanish jarayonlari va jarohatlardan himoyalanish uchun sport shifokorlari va fizioterapevtlar juda muhim. Ushbu soha tibbiyot va sportning tutashgan nuqtasidir va ayniqsa professional sportda talab yuqori.

Kelajakda yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan kasblar:

Sport hakami (sport arbitri, referi) (34222010) - VAR (video yordamchi hakam), avtomatik ofsayd tizimlari va boshqa texnologiyalar qaror qabul qilish jarayonini ancha aniqlashtirdi. Natijada, kelajakda o‘yinlar robotlar yoki sun’iy intellekt asosida boshqarilishi mumkin.

Kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasblar:

Sport psixologi / Neyrotrener(26349007) - sportchilarning ruhiy holatini, stressni boshqarish, e’tibor va motivatsiyani oshirish bilan shug‘ullanadi. Neyrotexnologiyalardan foydalangan holda mashq rejalari ishlab chiqiladi.

Sport vazirligi tuzilmasi tarkibiga quyidagi ta’lim tashkilotlari kiradi:

- O‘zbekiston davlat va jismoniy tarbiya universiteti;
- Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati muzeyi;

- Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti;
- Sportning qishki va murakkab texnik turlari boʻyicha respublika oliy sport mahorati maktabi;
- Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi;
- Sport oʻyinlari boʻyicha respublika oliy sport mahorati maktabi;
- Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti;
- Gimnastika boʻyicha oliy sport mahorati maktabi;
- Gimnastika boʻyicha ixtisoslashtirilgan respublika bolalar-oʻsmirlar olimpiya zaxirasi sport maktabi;
- Sport yakkakurashlari boʻyicha oliy sport mahorati maktabi;
- Yengil atletika boʻyicha oliy sport mahorati maktabi.

## 4. Tarmoqqa tegishli kasblar tahlili

Mashgʻulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq Jismoniy tarbiya va sport sohasiga tegishli kasblar roʻyxati quyidagi jadvalda keltirilmoqda:

| T/r | Lavozim va kasblar kodi | Lavozim va kasblar nomi |
|---|---|---|
| 1. | 12190019 | Kengash raisi (ilmiy-texnik, oʻquv-uslubiy, oʻquv, tibbiy, uslubiy, jismoniy tarbiya-sport, ekspert) |
| 2. | 13111043 | Zotdor otlarni sinash boʻyicha bosh hakam |
| 3. | 13220037 | Maydon (astronomik, asbobsozlik, konteyner, sport va boshqalar) mudiri |
| 4. | 13450017 | Oliy ta’lim sport klubi muassasasi boshligʻi (mudiri) |
| 5. | 14312001 | Bosh murabbiy |
| 6. | 14312004 | Jismoniy tarbiya-sport tashkiloti direktor |
| 7. | 14312006 | Sport bazasi boshligʻi |
| 8. | 14312007 | Sport boʻyicha bosh murabbiy-oʻqituvchi |
| 9. | 14312009 | Sport inshooti direktori (administratori) |
| 10. | 14312010 | Sport inshooti direktori (boshligʻi) |
| 11. | 14312012 | Bolalar, oʻsmirlar sport maktabi direktori |
| 12. | 22121137 | Sport tibbiyoti shifokori |
| 13. | 22641003 | Jismoniy reabilitatsiya boʻyicha uslubchi-yoʻriqchi |
| 14. | 22690004 | Tibbiy muassasa davolovchi jismoniy tarbiya yoʻriqchisi |
| 15. | 22690005 | Tibbiy muassasaning davolovchi jismoniy tarbiya uslubchisi |
| 16. | 23420005 | Jismoniy tarbiya yoʻriqchisi |
| 17. | 23591006 | Ma’naviyat, jismoniy tarbiya va sport bo’yicha uslubchi-yo’riqchi |
| 18. | 23599004 | Toʻgarak (jamoa) rahbari |
| 19. | 26349007 | Sport psixologi |
| 20. | 26351012 | Sport muhandisi |

| | | |
|---|---|---|
| 21. | 31534001 | Aeroklub shturmani (aviatsiya-texnika, sport, yengil aviatsiya va boshqalar) |
| 22. | 33399004 | Sport bo‘yicha agent |
| 23. | 34210001 | Atlet (turlari bo‘yicha) |
| 24. | 34210002 | Sportchi (turlari bo‘yicha) |
| 25. | 34220001 | Davlat murabbiyi |
| 26. | 34220002 | Jismoniy tarbiya bo‘yicha tarbiyachi |
| 27. | 34220003 | Jismoniy tarbiya bo‘yicha uslubchi |
| 28. | 34220004 | Jismoniy tarbiya bo‘yicha yo‘riqchi |
| 29. | 34220005 | Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari yo‘riqchi-uslubchisi |
| 30. | 34220006 | Kibersport bo‘yicha o‘qituvchi-murabbiy |
| 31. | 34220007 | Milliy (olimpiya, ommaviy) sport turlari bo‘yicha murabbiy |
| 32. | 34220008 | Murabbiy |
| 33. | 34220009 | Parasport turlari bo‘yicha o‘qituvchi-murabbiy |
| 34. | 34220010 | Parasport turlari bo‘yicha yo‘riqchi-uslubchi |
| 35. | 34220011 | Safda yurish va jismoniy tarbiya bo‘yicha yo‘riqchi |
| 36. | 34220012 | Sport maktabi yo‘riqchi-uslubchisi |
| 37. | 34220013 | Sport otlari bo‘yicha murabbiy-yo‘riqchi |
| 38. | 34220014 | Sport turlari bo‘yicha o‘qituvchi-murabbiy |
| 39. | 34222001 | Harbiy-texnik sport turlari bo‘yicha inspektor |
| 40. | 34222002 | Bolalar sport o‘yinlari (turlari) bo‘yicha murabbiy |
| 41. | 34222003 | Harbiy-texnik tayyorgarlik inspektori |
| 42. | 34222004 | Kibersport hakami |
| 43. | 34222005 | Moslashuvchan jismoniy tarbiya bo‘yicha yo‘riqchi |
| 44. | 34222006 | Ommaviy sport ishlari tashkilotchisi |
| 45. | 34222007 | Ommaviy-mudofaa ishlari bo‘yicha inspektor |
| 46. | 34222008 | Ot poygasi hakami |
| 47. | 34222009 | Referi |
| 48. | 34222010 | Sport hakami |
| 49. | 34222011 | Sport hakami (sport arbitri, referi) |
| 50. | 34222012 | Sportchi-uslubchi |
| 51. | 34222013 | Sportchi-yo‘riqchi |
| 52. | 34222014 | Texnik va harbiy-amaliy sport turlari bo‘yicha yo‘riqchi-uslubchi |
| 53. | 34222015 | Usta chavandoz |
| 54. | 34230001 | Asosiy faoliyat bo‘yicha yo‘riqchi |
| 55. | 34230002 | Suvda qutqaruvchi-yo‘riqchi |
| 56. | 34230004 | Yordamchi komanda yo‘riqchisi |
| 57. | 51530005 | Sport inshooti komendanti |
| 58. | 51640006 | Otlar treneri |
| 59. | 53210011 | Sport tibbiyoti davolovchi jismoniy tarbiya yo‘riqchi hamshirasi |
| 60. | 72339025 | Sportning texnik turlari bo‘yicha mexanik |
| 61. | 73119017 | Sport inventari (kemalari) ta’mirlovchisi |
| 62. | 73119018 | Sport qurolini ta’mirlovchi |
| 63. | 83429012 | Sport inshootlariga xizmat ko‘rsatuvchi mashina mashinisti |

## 5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma’lumot

Tarmoq kengashi tomonidan 2025-2026-yillar mobaynida Jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar to‘g‘risida ma’lumot quyidagi jadvalda keltirilmoqda:

| T/r | Kasbiy standartlar soni | Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni | Ishlab chiqiladigan yil va oy |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 8 | 2025-yil, dekabr |
| 2 | 3 | 12 | 2026-yil, dekabr |

## 6.Tarmoq malakalar ramkasi malaka darajalarining tavsifi

| Malaka darajasi | | Bilim | Koʻnikma (mahorat) | Mas'uliyat va mustaqillik | Kasbiy guruhlarga oid faoliyat turi va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi |
|---|---|---|---|---|---|
| Milliy malaka ramkasi MMR | Tarmoq malaka ramkasi TMR | | | | |
| 1 | 1 | Sport faoliyatining tanlangan yoʻnalishi boʻyicha elementar va boshlangʻich umumiy bilimlar;<br>Sport mashgʻulotlari va mashqlarining oddiy turlari, ularning maqsadi va bajarilish ketma-ketligi;<br>Sport inshootlari, jihozlari va anjomlaridan foydalanishning asosiy qoidalari;<br>Shaxsiy gigiyena, xavfsizlik texnikasi va sportdagi oddiy mehnat muhofazasi talablari. | Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy sport vazifalarini bajarish;<br>Murabbiy yoki mas'ul shaxs koʻrsatmasiga asosan oddiy jismoniy mashqlarni bajarish;<br>Sport jihozlarini tayyorlash, yigʻish va joyiga qoʻyishda yordamchi amallarni bajarish;<br>Mashgʻulot jarayonida intizomga rioya qilish va koʻrsatmalarni toʻgʻri qabul qilish. | Berilgan topshiriqlarni belgilangan tartibda va vaqtida bajarish uchun shaxsiy javobgarlik;<br>Oʻz harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xavfsizlik holatlariga mas'ul boʻlish;<br>Sport anjomlari va jihozlariga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish;<br>Mashgʻulot jarayonida umumiy tartib-qoidalarga rioya qilish;<br>Oʻzganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash;<br>Faqat koʻrsatma va yoʻriqnomalar asosida faoliyat olib borish;<br>Mustaqil qaror qabul qilish talab etilmaydi, barcha harakatlar murabbiy yoki mas'ul shaxs nazorati ostida amalga oshiriladi. | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2** | **2** | Sport faoliyatining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha asosiy umumiy va amaliy bilimlar;<br>Sport mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan asosiy mashqlar va harakatlar texnikasi;<br>Sport jihozlari va anjomlaridan foydalanishning oddiy texnologik qoidalari;<br>Xavfsizlik texnikasi, mehnat muhofazasi va sportdagi asosiy sanitariya-gigiyena talablari;<br>Murabbiy ko‘rsatmalarini tushunish va bajarish uchun zarur bo‘lgan terminologik bilimlar. | Belgilangan qoidalarga muvofiq oddiy va takrorlanuvchi sport vazifalarini mustaqil bajarish;<br>Murabbiy tomonidan berilgan mashqlarni to‘g‘ri texnika asosida bajarish va namoyish etish;<br>Mashg‘ulotlar vaqtida sport jihozlarini tayyorlash, sozlash va yig‘ishtirish;<br>Mashg‘ulot jarayonida ishtirokchilarga oddiy tashkiliy yordam ko‘rsatish;<br>Oddiy muammoli holatlarni aniqlash va ularni mas’ul shaxsga yetkazish. | Topshirilgan vazifalarni sifatli va belgilangan tartibda bajarish uchun javobgarlik;<br>Mashg‘ulotlar davomida xavfsizlik qoidalariga rioya etish uchun shaxsiy mas’uliyat;<br>O‘z faoliyati natijalari va sport jihozlaridan foydalanish holati uchun javob berish;<br>Intizom, sport etikasi va ichki tartib-qoidalarga amal qilish;<br>Bevosita nazorat ostida, ammo cheklangan darajada mustaqil ishlash;<br>Oldindan belgilangan vazifalarni mustaqil bajarish, murakkab holatlarda murabbiyga murojaat qilish;<br>Standart vaziyatlarda mustaqil harakat qilish, nostandart vaziyatlarda rahbar ko‘rsatmasiga amal qilish. | |
| **3** | **3** | Asosiy anatomik va fiziologik bilimlar, texnologik operatsiyalar va ularni rejalashtirish usullari;<br>Ishlatiladigan asboblarning ishlashi, xususiyatlari va maqsadi (jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik | Namunaviy amaliy masalalarni yechish;<br>Ish sohasida belgilangan vazifalar doirasida tartiblashtirilgan va tartiblashtirilmagan amallarni doimiy ravishda va alohida bajarish; | Faqat yaxshi o‘rgatilgan ish sharoitidagi o‘z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik qoidalariga amal qilish;<br>Mavjud algoritm va yo‘l-yo‘riqlarga muvofiq nazorat ostida standart va oddiy | **93.19 Sport sohasidagi boshqa faoliyat:**<br>31534001 — Aeroklub shturmani (aviatsiya-texnika, sport, yengil aviatsiya va boshqalar)<br>73119017 - Sport inventari (kemalari) ta’mirlovchisi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | bazasi), mehnat obyektlari (jismoniy tarbiya va sportning moddiy va nomoddiy tovar va xizmatlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish sohasida);<br>Me’yoriy talablarga muvofiq (mehnat salomatligi va xavfsizligi boʻyicha koʻrsatmalar, yongʻin xavfsizligi, sport qoidalari (sport fanlari guruhi), mehnat faoliyati subyektlarining jismoniy faolligining hozirgi holatiga qoʻyiladigan talablar va xususiyatlar) va boshqalar. | Jismoniy tarbiya va sport soha kasbiy atamalar, kasbiy faoliyatning ma’lum bir turini amalga oshirish;<br>Standart texnologik (ishchi) koʻrsatmalar, tartib, qoidalar, namunaviy uslubiy ishlanmalar va rejalarni qoʻllash;<br>Barqaror vaziyatlarda asboblardan (jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi) foydalanish. | vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish. | 73119018 - Sport qurolini ta’mirlovchi |
| **4** | **4** | Amaliy muammolar yechimining ilmiy, texnik, anatomik, fiziologik yoki uslubiy asoslari;<br>Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy faoliyatning muayyan turidagi amaliy va muayyan doiradagi nazariy bilimlar;<br>Murakkab texnologik (ishchi) koʻrsatmalar, uslubiy ishlanmalar va rejalar boʻyicha bilimlar. | Belgilangan ishlab chiqarish doirasida har xil vazifadagi tartibsiz takrorlanadigan operatsiyalar (ish)ni muntazam bajarish;<br>Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma’lum turdagi kasbiy faoliyat vazifalarni yechishda optimal yondashuvlarni tanlash;<br>Mehnat vositalarining texnologik parametrlari (jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi) sozlash;<br>Amaldagi yondashuvlarning samaradorligi nuqtayi | Har qanday murakkab texnik va texnologik jarayonlarda mustaqil qarorlar qabul qilish va ularning natijalari uchun toʻliq javobgar boʻlish;<br>Jarayonlarning samaradorligi va xavfsizligini ta’minlash uchun ekspluatatsiya qoidalarini samarali qabul qilish va qoʻllash;<br>Muammolarni va nuqsonlarni aniqlashda mustahkam mustaqillikka ega boʻlish, ularni tez va samarali hal qilish, qarorlar qabul qilishda tashkilotning talablariga | **93.11 Sport obyektlari faoliyati:**<br>72339025 — Sportning texnik turlari boʻyicha mexanik<br>83429012 - Sport inshootlariga xizmat koʻrsatuvchi mashina mashinisti |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | nazaridan quyi darajadagi xodimlarning faoliyati va/yoki faoliyati mahorat darajasi samaradorligini baholash;<br>Ish jarayonidagi yuqori samaradorlikni ta’minlash uchun innovatsion yondashuvlarni va yangi texnologiyalarni joriy qilish, hamda yuqori darajadagi mustaqillikni saqlab turish. | muvofiq yo‘l-yo‘riqlarni izchil bajarish;<br>Ish texnologiyasi va metodologiyasi, ishlatiladigan asboblar bo‘yicha maxsus bilimlarni qo‘llash asosida mehnat (jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi), mehnat obyektlari (jismoniy tarbiya va sportning moddiy va nomoddiy tovarlari va xizmatlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish sohasida) foydalanilgan ma’lumotlar bilan mustaqil ishlash; | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
